

Date: 13<sup>th</sup>May-2025

## ZAMONAVIY O 'LCHASH VA REJALASH ASBOBLARI

**Rajabova Asaloy Obodbek qizi**

Urganch davlar pedagogika instituti

Texnologik ta'lim 3-kurs talabasi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 6-sinf o'quvchilariga zamonaviy olcha va rejalash asboblari togrisida ma'lumotlar keltirilgan.Umumta'lim maktabi 5 va 6-sinflar mehnat darslarida yog 'ochga ishlov berish texnologiyasi asoslari bo'limida o'quvchilarga yog 'ochga ishlov berish ustaxonasi,yog 'ochning hayot uchun ahamiyati, ish o 'rnini tashkil etish,yog 'ochlarning tuzilishi, turlari, umumiyl xossalari va ularning sifatini aniqlash, yog 'ochning ishlatilish sohalari, duradgorlik asbob-uskunalari va moslamalari haqida va yog 'ochga ishlov berish texnologiyalari haqida tushuncha va ko 'nikmalar beriladi.

**Аннотация:** Данная статья знакомит учащихся 6 класса с современными вишневыми инструментами и инструментами планирования. На уроках труда 5-го и 6-го классов общеобразовательной школы в разделе по основам технологии деревообработки учащимся даются представления и навыки о деревообрабатывающей мастерской, значении древесины для жизни, организации рабочего места, строении, видах, общих свойствах древесин и их качестве, сферах использования древесины, столярных инструментах и приспособлениях, технологиях деревообработки.

**Abstract:** This article provides Year 6 students with information about modern cherry and planning tools. In Years 5 and 6 of secondary school, in the section on the basics of woodworking technology, students are provided with understanding and skills about the woodworking workshop, the importance of wood for life, the organisation of the workplace, the structure, types, general properties and determination of their quality, the areas of use of wood, carpentry tools and devices, and woodworking technology.

**Kalit so 'zlar:**lazer, arxitektor, interyer dizayneri, o 'lchov lentasi.

**Ключевые слова:** лазер, архитектор, дизайнер интерьера, измерительная лента.

**Keywords:** laser, architect, interior designer, measuring tape.

**Kirish.**O'quvchilarni kasbiy bilimlar va o'quv va ko 'nikmalar bilan muvaffaqiyatl ravishda qurollantirish, ularda mehnat malakalarini shakllantirish zarur bo 'lib qolmasdan, balki ularning texnik fikrlashini o 'stirish, ishda tashabbus ko 'rsatishni va mehnatga ijodiy yondoshuvini tarbiyalash ham zarurdir. Bu borada o 'quvchilarga zamonaviy bilim va tarbiya berishda o 'qituvchidan katta bilim va malaka, kasbiy mahorat, mehnat va izlanishlar talab qilinadi.

6-sinfda yog 'och turlari ularga ishlov berishda ishlatiladigan asbob-uskunalar mavzusini tanlashimdan assosiy maqsad: o 'quvchilarning yasayotgan buyumlari aniq o 'lchamga ega,sifatli va shu bilan birga yaroqsiz holga kelib qolmasligi uchun o 'lchov va rejalash asboblaridan hamda texnologik jihozlardan ham to 'g 'ri va puxta foydalanishni o 'zlashtirib olishlari kerak. Albatta biror buyumni yasash uchun birinchi bo 'lib o 'lchash va


Date: 13<sup>th</sup>May-2025

rejalash ishlari bajariladi. Agar rejalah ishi noto ‘g ‘ri bajarilsa, buyum yaroqsiz holga kelib qoladi, shu bilan birga ish unumi pasayadi. Rejalah murakkab va mas ‘uliyatli ish bo ‘lib, diqqat bilan ishlashni talab qiladi. Undan keyin rejalangan zagotovka maxsus asbob-uskunalar bilan ishlov berilib kerakli buyum yoki shakl yasaladi. Yog ‘ochdan tayyorlanadigan buyumlarning aniq va yaxshi sifatlari chiqishi duradgorning ish malakasiga va shu bilan birga, nazorat-o ‘lchov hamda rejalah asboblari va asbob-uskunalardan o ‘rinli, to ‘g ‘ri foydalana olishlariga bog ‘liq.

Shuning uchun o ‘quvchilarda o ‘lchov va rejalah asboblari bilan birgalikda maxsus asbob-uskunalaridan va texnologik jihozlardan to ‘g ‘ri va aniq foydalanish bilim, ko ‘nikma va malakalarini shakllantirish, shu bilan birga ishga va asbob-uskunalarga e ‘tiborli bo ‘lib, xavfsizlik-texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda ishni to ‘g ‘ri tashkil qilishni o ‘rgatish lozim.

Raqamli texnologiyalarning sanoat va ishlab chiqarish sohalariga kirib kelishi natijasida yog,, och, metall, polimer, kompozit, keramika kabi materiallarni qayta ishlash, ularning chiqindilaridan ham samarali foydalanish asosida yangi turdag'i materiallar ishlab chiqarilmoqda. Yangi materiallarni ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalar – ma ‘lum bir ketma-ketlik va chastotalarda kodli impulslarni yozish uchun elektron hisoblash mashinalaridan foydalaniладиган texnologiyalar.

BD8M lazer masofasini o ‘lchagich, kross-chiziqli lazer va o ‘lchov lentasini bitta qurilmada birlashtiradi. Tez va osonlik bilan masofalarni, perimetrlarni, maydonlarni va hajmlarni aniqlashingiz mumkin. Yoki burg ‘ulash teshiklarini yoki devor shkaflarini to‘g‘ri moslashtirish uchun kross-chiziqli lazer yordamida lazer chiziqlarini loyihalash. Yoki qiyin erishiladigan joylarda qo‘lda o ‘lchovlar uchun lenta o ‘lchovidan foydalaning.





Masofalarni, maydonlarni va hajmlarni tez va oson aniq o'lchashni aniqlaydi. Pifagor funktsiyasi tufayli o'lchash ma 'lumotlarini qo'shish va chiqarish, shuningdek min/MAX funktsiyasi va bilvosita o 'lchovlar bilan uzlusiz o'lchovlar mumkin.

O'lchanan ma'lumotlarni yoritilgan displayda aniq aks ettiradi va ularni ichki ma'lumotlar xotirasida saqlaydi (maks. 20 o'lchov). Aniq tanib olinadigan chiziqlarni aniq 10 metrgacha bo'lgan masofadagi sirtlarga o'tkazadigan o'rnatilgan cross-line lazeriga ega. Amaliy qaytish tugmasi bilan 5 m uzunlikdagi o'lchov lentasi yordamida siz erishish qiyin bo'lgan joylarda qo'lda o'lchovlar olish imkonini beradi.

Lazerli metr lazer nurlari yordamida masofani o'lchash uchun mo'ljallangan. Ishlash prinsipi juda oddiy bo'lib, lazer nurlari belgilangan to'siqqa urilib, urilgan lazer nuri moslamaning qabul qiluvchisiga qaytishi natijasida amalga oshiriladi. Geometrik masofani, balandlikni, uzunlikni kontaktsiz holda o'lchashda foydalaniladigan raqamli texnologiya hisoblanadi. Lazer darajasi (uroven) xalq tilida "shayton" deb ham ataladi sirtlarning o'zaro gorizontal va vertikal joylashishini, turli qurilmalarning aniq o'rnatilganligini tekshirishda ishlatiladigan asbob. Lazerli shayton matritsasi 400 mm, 3 ko'zli, zarbga chidamli metall korpusga ega, maxsus shtativ, aylanma taglik, ikkita optik linza, ikkita ampula darajasi va plastik korpus bilan to'ldirilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki zamonaviy o'lchash va rejalah asboblarining turlari bugungi kunda juda ko'plab, ulardan samarali va oqilona foydalanishni o'rgatish o'qituvchilarining vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli farmoni.
- 2.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. 2009

Date: 13<sup>th</sup>May-2025

3. S. Mahkamov. O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar.  
Toshkent "o'qituvchi"1991y

